

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“FUNDAMENTAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

QODIROV ASLIDDINXO‘JA MAHAMMADJON O‘G‘LI

**IQTISODIY O‘SISHNING UMUMIY TAVSIFI VA UNGA TA‘SIR
ETUVCHI OMILLAR TAXLILI**

70310101 - “Iqtisodiyot nazariyasi”
mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: i.f.d: Mamaraximov

Toshkent-2024

ANOTATSIYA

Magistrlik dissertasiya ishi dolzarb mavzuga bag'ishlangan bo'lib bunda Iqtisodiy o'sishga erishish uchun ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu nuqtai nazaridan bu o'z navbatida mamlakat iqtisodiy o'sishga erishish unga ta'sir etuvchi omillarni chuqur taxlil qilish orqali samarali natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Bugungi kunning ilm-fan yutuqlaridan keng va samarali foydalanish, ishlab chiqarishda eng ilg'or va so'nggi avlod texnologiyalarini joriy etish, milliy iqtisodiyotning o'sishiga e'tiborni yanada kuchaytirish uchun iqtisodiy rivojlanish strategiyasini to'g'ri shakllantirish orqali milliy amaliyot va yutuqlarimiz bilan yuqori darajalarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak mamlakatda yuqori iqtisodiy o'sishga erishish uchun iqtisodiy rivojlanish strategiyasi to'g'ri yo'lga qo'yilganligi katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi iqtisodiy o'sishga erishish va unga ta'sir etayotgan omillar taxlilni chuqur o'rganib, milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun turli yondashuvlar, vositalar va metodologiyalarni o'rganishdir. Tadqiqot shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini o'sishida duch keladigan muammolarni aniqlashga qaratilgan va bu qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: *Iqtisodiy o'sish, iqtisodiy rivojlanish strategiyasi*

Summary

The Master's dissertation is devoted to a current topic, in which scientific proposals and practical recommendations for achieving economic growth have been developed. From this point of view, this, in turn, shows that effective results can be achieved through a thorough analysis of the factors affecting the country's economic growth. National practice and by correctly formulating the strategy of economic development for the wide and effective use of today's scientific achievements, the introduction of the most advanced and last-generation technologies in production, and the strengthening of attention to the growth of the national economy. it is important to reach high levels with our achievements.

Therefore, to achieve high economic growth in the country, it is very important that the economic development strategy is set correctly. The purpose of this study is to study different approaches, tools and methodologies for further growth of the national economy by studying in depth the analysis of the factors affecting economic growth.

The study is also aimed at identifying the problems faced in the growth of the country's economy and provides recommendations for overcoming these difficulties.

Keywords: *economic growth, economic development strategy*

| | |
|---|-----------|
| ANOTATSIYA..... | 2 |
| KELTIRILGAN JADVALLAR RO‘YXATI..... | 6 |
| KELTIRILGAN RASMLAR RO‘YXATI..... | 7 |
| KELTIRILGAN QISQARTMALAR | 8 |
| I BOB. KIRISH | 9 |
| 1.1.Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi | 10 |
| 1.2 Tadqiqot maqsadi va vazifalari..... | 11 |
| 1.3.Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari..... | 12 |
| 1.4.Tadqiqot ob’ekti va predmeti..... | 12 |
| 1.5.Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati | 12 |
| 1.6.Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi | 14 |
| II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI VA TAHLILI..... | 15 |
| 2.1 Kirish..... | 15 |
| 2.2. Iqtisodiy o‘sish va unga ta’sir etuvchi omillar nazariy asoslari | 15 |
| 2.3. Mahalliy me’yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi..... | 28 |
| III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI | 38 |
| 3.1.Tadqiqot dizayni | 38 |
| 3.2.Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni | 38 |
| 3.3.Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar | 38 |
| 3.4. Tadqiqot o‘tkazish zarur shart-sharoitlar..... | 39 |
| 3.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi | 40 |
| 3.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar..... | 41 |
| IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR..... | 42 |
| 4.1. Milliy iqtisodiyotni barqaror iqtisodiy o‘sishiga erishida va..... | 42 |
| rivojlantirishda xorij tajribasi..... | 42 |
| 4.2. Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili | 53 |
| 4.3. Tahlillardan olingan natijalar sharhi | 64 |
| V bob. XULOSA..... | 66 |

| | |
|---|----|
| 5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi..... | 66 |
| 5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari..... | 67 |
| 5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar..... | 69 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI..... | 70 |

I BOB. KIRISH

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishi, chuqur tarkibiy o‘zgarishlar, iqtisodiyotning barqaror va samarali rivojlanishi taraqqiyotning xom-ashyo yo‘nalishidan innovatsiya yo‘nalishiga o‘tishi hamda bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o‘tish, natijada butun iqtisodiyotda strategik muhim o‘zgarishlarni amalga oshirilishi bilan bog‘liq.

Bozor islohotlarini joriy etilishi, jahon hamjamiyatiga mamlakatning integratsiyalashuvi, jahon iqtisodiy tizimining bilimlar va axborot rolining o‘sishi tomon o‘zgarishi, yangi texnologiyalar va kapital bozori o‘rtasidagi aloqalar kuchayishi bilan davlatimiz iqtisodiyotining rivojlanish yo‘liga o‘tishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Hech kimga sir emas – bugun jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mustaqilligimizni mustahkamlash, mamlakatimizning hududiy yaxlitligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlash eng muhim vazifa, kerak bo‘lsa, masalalarning masalasi bo‘lib turibdi. Faqat barqaror iqtisodiyotgina ijtimoiy muammolarni hal etish imkonini beradi¹”

Hech bir sohada raqobat bo‘lmas ekan, barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish qiyin bo‘lib qolaveradi. Iqtisodiy o‘shishning asosida iqtisodiyotdagi asosiy tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o‘shish ishlab chiqarishning yetakchi tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga tayanadi. Boshqa so‘z bilan aytganda, iqtisodiy o‘shish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil ko‘paytirib borish va jamiyat taraqqiyotida iqtisodiy va ijtimoiy, texnologik tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoniga muvofiq, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi yangi konstitutsiyaga

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022 yil 26-yanvar kuni O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishidan